



SINFDOHLARIMGA DARS O'TGANMAN

Bizning maktabda ana shunday kun bor. Bu kuni o'zimiz o'qituvchi bo'lib dars o'tamiz. Men ham shu kasbga qiziqqanim uchun sinfdoshlarimga dars o'tganman.

*O'kirbek FARMONOV,
Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi
13-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi*

UZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KONGRESS PALATASI

INV. № — Markaz rahbari

Xan Svetlana opa, ustozlarimizdan Qunduz Hazratova va Zuhra opalar bizga ingliz tilida sahna ko'rinishlari tayyorlashni, topishmog'-u turli qo'shiqlarni o'rgatishmoqda. Yaqinda bo'lib o'tgan bahor saylida esa inglizcha yor-yor ham aytdik.



INGLIZCHA YOR-YOR

*Sarvinoz YOQUBJONOVA,
O'DJTUGa qarashli til o'qitish
markazi o'quvchisi*



O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

*2009-yil
13-aprel
N:15
(66712)*

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

ISSN – 2010-6092

Ushbu sonnda:

**TARIKDA
QOLGAN PARVOZ**



2-3-betlar

**DARSDA NEGA
GAPLASHASIZ?**

3-betda



**BOBOMIZ
YOZGAN KITOB**

4-betda

**«TILLAQOUSH
TAQQIM
KELARDI»** *8-betda*





BAHORGA O'XSHAGIM KELADI

Bahor faslini juda yaxshi ko'rganim uchun kitobimni «Zumrad bahor» deb nomladim. Bu kitobcham bosilib chiqqanida, qanchalar xursand bo'lganimni ko'rsangiz edi. Shunda onam: «O'zing ham bahorday ochilib ketding-a, qizim», dedilar mehr bilan quchib. Chindan ham bahorga juda o'xshagim keladi.

Nafisa ESHMETOVA,

Xorazm viloyati, Shovot tumanidagi 29-maktabning 8-sinf o'quvchisi

YOSH DELEGATLAR

Bizning tumanda ham «Kamolot» YOIHning faol a'zolari ko'p. Romitan tumanidagi qirq uchta maktab yetakchilari va maktab «Kamolot» bo'limi sardorlari anjuman o'tkazdik. Unda yangi reja, tashabbuslarimizni o'rtaga tashlab, xuddi delegatlarday muhokama qildik. «Kamolot» bizni ana shunday tashabbuskorlikka chorlab kelmoqda.

Mukarram OTAMURODOVA,

Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi
23-ixtisoslashgan maktab o'quvchisi

Qadrdon gazetam!

Gazetamizning 80 yillik yubileyi arafasida tahririyati-
mizdan mehmonlar arimay qolganidan xabaringiz bor. «Toppa bir dasta gul...»
deganlaridek, tanikli bolalar shoirlari, yozuvchilari Siz aziz bolajonlarga,
qolaversa, sevimli nashringizga atalgan dil so'zlarini aytib, yozib
ketishyapti:

YAXSHI O'RTOQ

Har vaqt bolalar davrasida bo'lish, doimo kichkintoylar bilan chaqchaqlashish nihoyatda zavqli. «Tong yulduzi» ana shunday baxtga yo'g'rilib yashayotgan gazeta. Sakson yil davomida bolatabiatlikni saqlab turish oson emas, bu faqat bolalar nashrining qo'lidan kelishi mumkin.

Quvonarli tomoni shundaki, gazeta yil sayin mazmunan boyib bormoqda, jamoa doimiy izlanishda. Ayniqsa, turli viloyatlardagi yosh gazetxonlar bilan muloqotni kengaytirishga harakat qilinayotgani maqtovga sazovordir. Zero, o'z o'quvchisi bilan tillasha olmoq ishning ko'zi hisoblanadi.

Shunday yaxshi o'rtoq, shunday go'zal gazetaning mualliflaridan biri ekanligimdan g'ururlanaman. Jamoaning biri-biridan ochiq chehrali xodimlarini qutlug' sana bilan chin yurakdan tabriklab, kelgusidagi ishlarida ulkan yutuqlar tilab qolaman.

Bor o'z izi, Porlayversin,
Bor o'z yuzi. «Tong yulduzi»!



Anvar OBIDJON,
O'zbekiston xalq shoiri

ILK SHE'RIM CHIQQAN NASHR



Maktabda o'qib yurgan kezlirim she'rlar yozib yurardim. Bir kuni bu qiziqishimdan xabardor bo'lgan Erkin Malikov «Lenin uchquni» gazetasi qoshida «Yosh qalamkashlar» to'garagi borligini aytdilar va unga qatnashishimni tavsiya qildilar.

Navoiy ko'chasi, 30-uyda joylashgan tahririyatga ko'tarilayoganda, yuragim dukillagani hali ham esimdand chiqmaydi.

To'garakka Abdusaid Ko'chimov rahbarlik qilar ekanlar. Haftada bir yig'ilgan to'garak a'zolari yozib kelgan ijod namunalari o'qish bilan birgalikda muhokama qilishar ekan. Shunday qilib, men gazeta xodimlari, uning ish jarayoni bilan tanishdim. Gazetada e'lon qilingan «Tong pallasi» nomli ilk she'rim hali ham esimda.


Biz muhokamalar paytida ustozlarimizdan ko'p narsalarni: she'r yozish texnikasini, so'zga e'tiborli bo'lishni, badiiy saviyani o'rganardik. Goh to'garak yig'ilishlariga jiddiy Sulton Jabbor, goh quvnoq Hamza Imonberdiyev kirib qolishardi. Ular ijod namunalari mukammallik darajasiga keltirish uchun nimalar qilish kerakligi haqida qimmatli maslahatlarini ayashmasdi. Gazetada she'rlarimiz e'lon qilingach esa maktabga ko'plab xatlar kelar edi.

Esimda, bir maqolada inson hayotini saqlab qolgan poyezd haydovchisi haqida yozgan edim. Bu maqolam «Tungi voqea» uchun tahririyat yig'ilishida ancha maqtov eshitdim. Men amaliyotimni xatlar bo'limidan boshlaganman. Xatlar bilan ishlash naqadar mas'uliyat kasb etishini shunda tushundim. Tahririyatga kuniga 40-50 tadan xat kelar edi.

Hozirgi «Tong yulduzi» jamoasi esa bolalar nashrlari orasida eng nufuzli va namunali jamoalardan biridir. Gazeta jamoasi iste'dodli mualliflarni jalb qilishdan charchamaydi. Jamoaning har bir xodimi gazetaning rang-barang va qiziqarli bo'lib chiqishida jon kuydiradi. Men bu ajoyib jamoaga kelgusida ulkan muvaffaqiyatlar tilab, ezgu niyatlari ro'yob bo'lishida, kitobxonlarning mehri va e'tiborini tortishida omadlar yor bo'lishini tilab qolaman.

Kavsar TURDIYEVA,
filologiya fanlari nomzodi

ARNASOYDA BIR BAYRAM BO'LDI,



bir bayram bo'ldi, asti qo'yaverasiz. Uning dovrug'i tumanga yoyilibgina qolmay, poytaxtga ham yetib keldi. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili»ga bag'ishlangan «Qadriyat, urf-odat, an'ana va yoshlar» deb nomlangan ushbu festivalni tumandagi «Axborot texnologiyalari» kasb-hunar kolleji o'qituvchilari hamda o'quvchilari tashkillashtirishdi. Kollej talabalari respublikamizdagi barcha viloyatlarning o'ziga xos urf-odatlarini, an'analari, milliy liboslari, taomlari, xalq o'yinlari, to'y marosimlariga oid sahna ko'rinishlari tayyorlashdi. Kollejning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Farida Olimjonova, Parizod Dasayeva, kollej uslubchisi Norxol Hafizova boshchiligidagi tayyorlangan Navro'z tomoshalari, kuy va qo'shiqlari, raqslari bayramga ko'tarinkilik baxsh etdi. Ayniqsa, kollejning jismoniy tarbiya va sport ishlari rahbari, O'zbekiston va Qozog'iston chempioni, 14 ta medal sohibi O'ktam Qo'chqorov shogirdlari Bobur, Jasur, Firdavs, Ruslanlar bilan uyushtirgan kurash, arqon tortish kabi polvonlar bellashuvini, jismoniy tarbiya o'qituvchisi Farhod Mamatqulov boshchiligidagi ko'pkari o'yinlarini ishqibozlar zo'r hayajon, zavq-u shavq bilan tomosha qilishdi.

Festivalda mehmon bo'lgan Yoshlar ijtimoiy harakati xodimi O'g'iloy Hafizova, «Nihol» nashriyoti muharriri Nodira Muhammedova hamda mahalla faollari o'quvchilarning chiqishlarini, har bir guruhning milliy liboslar, so'zanalar, kashtachilik, zardo'zlik buyumlari bilan yasatilgan maxsus burchaklarini, milliy taomlarimiz bilan bezatilgan dasturxonlarini yuqori baholashdi.

Tadbir so'nggida guruhlar orasidan saralarning sarasi aniqlandi. Feruza Bo'riyeva boshchiligidagi 105-guruh 1-o'ringa, Vazira Shokirova boshchilik qilgan 104-guruh ikkinchi, Gulhayo Isayeva yetakchiligidagi 101-guruh 3-o'ringa loyiq topildi. Kollej direktori Latofat Mahammadiyeva g'oliblarga maxsus diplom, qimmatbaho sovg'alar bilan birga, tanlovning tuman bosqichiga yo'llanmalar topshirdi.

Har bir kunimiz bayram bo'lganiga ne yetsin?!

FERUZA yozib oldi

12-aprel – Kosmonavtika kuni

TARIXDA QOLGAN



Aziz bolalar! Cheksiz samo, ulkan koinot insonni hamisha maftun etib kelgan. Yillar o'tib, orangizdan kosmik kemalar yasovchi muhandis-olimlar, tajribali fazogirlar yetishib chiqar, ehtimol. Chunki inson hayoti yangilikka va taraqqiyotga bog'liq. Shu bois ham yana nigohingizni koinotga qaratmoqchimiz.



g'aplashishga fursat topa olmaydi.

Mirkamol UMMATQULOV:

– Menimcha, boshlang'ich sinf o'quvchilari darsda ko'proq g'aplashishsa kerak. Chunki ularning diqqati tarqoqroq, o'zlari esa o'yinqaroq bo'ladi.

Yuqorida jizzaxlik tengdoshlaringiz fikrlari bilan tanishdingiz. Ba'zi bir tengdoshlaringiz esa bu savolimizga «40 daqiqa ichida juda zerikib ketamiz-da», deb javob berdilar. To'g'ri, 40 daqiqa g'aplashmasdan o'tirishning o'zi bo'lmaydi. Bilasizmi, siz dars vaqtida bemaol g'aplashishingiz mumkin. Faqat bu suhbat

DARSDA

NEGA GAPLASHASIZ?

Qo'ng'iroq chalindi. Demak, darsga kirish kerak. Yaxshiyamki, qo'ng'iroq bor. Bo'lmasa, gapga berilib ketgan qizlar hali-beri darsga kirishni xayollariga ham keltirmasdilar. Hechqisi yo'q, gapimizni darsda davom ettiramiz, deya istar-istamay sinfga yo'l oladiganlar ham orangizda borligini bilamiz. Bu haqda Jizzax viloyati Zomin tumanidagi 65-maktabning 8-sinf o'quvchilari shunday fikrdalar:

Muhiddin KARIMQULOV:

– O'g'il bolalar qizlarga qaraganda kamgaproq bo'lishadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, darsda g'aplashadigan odatim yo'q.

Shahzoda KUBAYEVA:

– Sinfimizda mahmadona, darsda ko'p g'aplashadigan o'quvchilar yo'q, desam ham bo'ladi. Darslarda g'aplashib o'tirish, o'zlashtirishning pasayishiga olib kelishini yaxshi tushunamiz.

Ohun NORQULOV:

– Darsda o'quvchining diqqatini jamlolmagan o'qituvchining darsida bolalar qo'proq g'aplashadilar. Bizning ustozlarimiz esa o'z fanlariga o'quvchilarni qiziqitira oladilar. Shu sababli, oramizda darsda g'aplashadiganlari yo'q.

Furqat HAYITOV:

– Ona tili va adabiyot, matematika fanlarini juda yoqtiraman. Ustozlarim Alisher Abduqodirov hamda Faxriddin Mamatqulovlar shunday dars o'tadilarki, bu darslarda hech bir o'quvchi

ustozingiz bilan bo'lsa, ayni muddao bo'lardi. Ustoz bilan nima haqda g'aplashamiz, deysizmi? Aytaylik, o'tgan darsdagi uy vazifasini yaxshi tushunmadigiz. Avvalo, bunga sizning darsga bo'lgan e'tiborsizligingiz sabab bo'lgan. Darsda g'aplashmay, ustozingiz tushuntirayotgan mavzuni yaxshilab tushunib olsangiz, berilgan topshiriqlarni qiynalmay bajarasiz. Buning uchun ko'p narsa talab qilinmaydi, shunchaki qunt bilan ustozingizni tinglashingiz kifoya. Butun diqqat-e'tiboringizni jamlab, yangi dars mavzusini tushunib ham oldingiz. Endi sizda o'z-o'zidan savollar tug'iladi. Ana shu savollaringizni ularga bersangiz, ustozingiz hech erinmay tushunmagan joyingizni yaxshilab tushuntirib beradilar. Qarabsizki, darsda e'tibor bilan o'tirganingizga ustozingiz xursand bo'lsalar, savolingizga javob olib, yangi mavzuni tushunib olganingizdan o'zingizning ko'nglingiz chog' bo'ladi. Eng asosiysi, darsda dugonam bilan g'aplasha olmadim, deb afsuslanmaysiz. Muhimi, endi uy vazifasini hech kimning yordamisiz o'zingiz bemaol bajara olasiz. Do'stlaringiz bilan esa tanaffus payti bemaol g'aplashavering. G'aplashganda ham o'tilgan darslar haqida fikr almashsangiz, bilimingiz yana-da oshishi aniq.

Bu usulni bir sinab ko'ring va olgan «5»laringiz haqida bizga yozib yuborishni unutmang.

Gulyuz BAHODIR qizi

Ilk fazoviy kema Qozog'istonning Boyqo'ng'ir degan cho'l-u biyobonidan uchgani haqida eshitganmisiz? 1961-yilning 12-aprelida «Vostok» fazoviy kemasi parvozigina ruxsat berilgan edi. Soat millari 9. 07 daqiqani ko'rsatganida, Yuriy Gagarinning «Qani, keldik!» degan da'vati yangradi. U vazni 4725 kilogramm bo'lgan fazoviy

Fazodan zaminning qandayligini ko'rishni kim ham istamaydi deysiz?! Gagarin o'z taassurotlarida Yer yuzasi katta balandlikdan qanday ko'rinsa, fazoviy kemadan ham taxminan shunday ko'rinishini aytib o'tgandi. Yirik tog'lar, katta daryolar, keng o'rmonlar, qirg'oqlar ko'zga tashlanib turar ekan. Ularning yer yuzidagi soyalari ham juda

Ammo fazogirning 1968-yil 27-mart kunidagi navbatdagi mashq parvozi fojiali tugadi. U yashashni, yana ko'p parvoz qilishni istardi...

Hozirda fazogirning muzeyi tashkil qilingan bo'lib, u yerdan sira odam arimaydi. Bu muzeyda Gagarin parvoz qilgan kemandagi fazogir ishxonasi eksponat qilib qo'yilgan.

O'zbek kosmonavtlari haqida ham eshitgandirsiz? 86-kosmonavt Vladimir Jonibekov hamda 372-kosmonavt qirg'izistonlik o'zbek Solijon Sharipov bir necha bor fazoga parvoz qilishgan. Shu kunlarda Gagarinning barcha izdoshlari jasoratli fazogirning 75 yillik tavalludini nishonlashadi.

Ko'rdingizmi, bolalar, tarixda, odamlar qalbida qolish uchun buyuk kosmonavtning otasi aytganidek, maktabda yaxshi o'qish, sport bilan shug'ullanish va intiluvchan bo'lish lozim ekan. Sizning qanday ulkan orzularingiz bor? Kelajakda ularning amalga oshishi uchun nimalar qilyapsiz?


Jabbor RAZZOQOV

Bilimdonlar tanlovi

TEST

1. Quyoshdan chiqqan yorug'lik nuri Yergacha necha daqiqada yetib keladi?

- A) 5 daqiqada;
B) 6 daqiqada;
D) 8 daqiqada.



2. Oyga ilk qadam qo'ygan astronaut kim?

- A) Edvin Aldrin;
B) Neyl Armstrong;
D) Maykl Kollinz.

3. Yerning eng chuqur joyidagi issiqlik necha daraja?

- A) 900 daraja;
B) 890 daraja;
D) 880 daraja.

4. Quyosh markazidagi issiqlik necha darajani tashkil etadi?

- A) 15 million darajani;
B) 16 million darajani;
D) 17 million darajani.



5. Yerga eng yaqin qo'shni sayyoraning nomini aniqlang.

- A) Mars;
B) Yupiter;
D) Venera.

6. Eng mashhur dumli yulduz Halley qachon kashf etilgan?

- A) 1680-yil;
B) 1682-yil;
D) 1684-yil.



PARVOZ

kemada atigi 108 daqiqa parvoz qildi. Lekin asrlarga tatigulik daqiqalar bilan butun insoniyatni hayratda qoldirdi. O'sha kuni fazogirning otasi Aleksey Ivanovich Gagarin o'g'li haqida shunday degan edi:

– O'g'lim maktabda yaxshi o'qigan, sport bilan shug'ullangan. U tirishqoq bola bo'lib, tayyoraning modelini yasagan edi. Uchuvchi Chkalov Vodopyanov to'g'risidagi kitoblarni sevib o'qib, allaqanday sayyoralarga uchish to'g'risida orzu qilardi.

yaxshi ko'rinishi, qop-qora osmonda tepadagi yulduzlar birmuncha yorqinroq ko'rinishi ma'lum bo'lgan. Yer atrofini esa o'ziga xos juda chiroyli zangori shu'la o'rab olgan ekan. Ana shu olamshumul parvozni amalga oshirishga hissa qo'shgan olim, birinchi fazoviy sistemalar akademigi S.P.Korolyov shunday degan edi:

– Yuriy Gagarin XX asr kishisining naqadar buyukligini namoyish etdi. U dunyoda birinchi bo'lib fazoga yo'l oldi. Birinchi bo'lish oson emas.

BOBOMIZ

YOZGAN KITOB



Aziz bolalar!

Dunyoda kamdan-kam podsholar davlat yuritish haqida kitob bitganlar. Ulug' Sohibqiron Amir Temur bobomizning tuzuklar bitganlaridan xabaringiz bor. Bu kitob «Temur tuzuklari» nomi bilan dunyoga mashhur. Ana endi do'ppingizni yerga qo'yingda, bunday kitob u zotga va mamlakatga nima uchun kerak edi, deya mulohaza qilib ko'ring va shu o'rinda bizning fikrlarimizni ham o'qib boring.

Dunyo yaralibdiki, buyuk insonlar jamiyatni boshqarishning eng maqbul va adolatli yo'lini joriy etishga intilib keldilar. Amir Temur bobomiz ham yurtimizni chingiziylar zulmidan ozod etib o'z davlatini tuzar ekan, unda birinchi navbatda qonunlar ustuvor bo'lishini ko'zda tutdi, chunki adolatli davlat tuzishda bu narsa muhim ahamiyatga ega ekanligini u zot yaxshi bilardi.

Siz ham «Temur tuzuklari»ni puxta o'rgansangiz, kelajakda u juda qo'l keladi, chunki unda nafaqat davlatni qonuniy boshqarish, balki insoniylik, mardlik, jasurlik, ilm-fanni egallash, ayollarni hurmat qilish va boshqa pand-nasihatlar, ibratli jihatlarni ham borki, ular hayotda siz uchun zarur qo'llanma bo'lishi mumkin, ayniqsa, mazkur asarni yaxshi inson bo'laman, chin rahbar bo'laman deganlar o'qib-o'rganishlari kerak.

«Temur tuzuklari» 2 ta katta kitobdan iborat bo'lib, birinchi kitob 30, ikkinchisi esa 27 bo'limdan iborat.

Mazkur asarda shunday so'zni uchratamiz:

«Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulm-u sitam yo'lini to'sdim».

Amir Temur bobomiz nafaqat o'z yurtida, balki Iroq, Ozarbayjon, Afg'oniston va boshqa mamlakatlarda ham qurilish va obodonchilik ishlarini olib bordi. Masalan, Bag'dod va Darband kabi shaharlarni qayta tikladi, Ozarbayjonda Boylaqon shahrini qayta barpo etdi va uzunligi 70 kilometr, eni 10 metrdan iborat bo'lgan katta kanal qazdirib, suv keltirdi. Bu kanal tarixda «Barlos nahri» nomi bilan mashhur. Shuningdek, Qorabog' va Mug'on dashtlarida xuddi shunday ulkan kanallar qazdirib, suv keltirdi va u joylarni obod etdi.

«Temur tuzuklari»da yozilganki, tashlandiq yerlar yoki cho'lni obod qilgan, koriz qazigan, bog'-rog'lar bunyod etgan, umuman, xarob yerlarni obod etganlar uch yilgacha hamma soliqdan ozod etilgan.

U zot to'g'riso'z kishilarga hurmat bilan qarardi:

«Qaysi kishi aqlga siqqan bir ishni kuyinib gapirsa, suyib eshitardim;

Kimki oqilona gaplarni erlarcha keskinlik bilan so'zlasa, unga ham quloq solardim;

Har kimdan kengash so'rardim, lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon tomonlari haqida o'ylab ko'rgach, to'g'ri va savoblirog'ini tanlardim».

Ko'rinib turibdiki, Sohibqiron Hazrat bobomizning tadbirlari muxtasargina, ya'ni qisqa, lo'nda, aniq, ammo ularning har birini katta-katta kitoblarga mavzu qilib olish mumkin.

Ungacha davlatchilik qonunlari sakkiz asosga ega edi, u zot to'qqizinchi asosni ham joriy etdi, unda xalq manfaati birinchi o'ringa ko'tarildi.

Yana «tuzuklar»da o'qiyimiz: «Bilagi zo'r – birni yiqar, bilimi zo'r – mingni». Siz qanchalik bilimli bo'lsangiz, yurtimiz ham shunchalik boy bo'ladi.

«Qudratimizga shak-shubhangiz bo'lsa, biz qurdirgan binolarga boqing». Amir Temur o'z poytaxti bo'lmish Samarqandni dunyoning eng go'zal shaharga aylantirdi. Shahrisabz, Buxoro, Qarshi, Toshkent, Termiz, Shohruhiya va boshqa shaharlarda bunyodkorlik ishlarini olib bordi.

Xullas, aziz bolalar, «Temur tuzuklari» har birimiz uchun boy ma'naviy xazina hisoblanadi. «Yozilgan narsa avlodlar xotirasida qilingan ishdan ham uzoqroq yashaydi», degan edi u zot. Birgina shu kitob bunga yaxshigina misoldir. Guvohi bo'lganingizdek, odamdan pul, mol-mulk emas, balki yaxshi nom, yaxshi kitob qolar ekan. «Temur tuzuklari»ni o'qing, fikrlaringiz bo'lsa, bizga yozib yuboring, yana fikrlashamiz.

«Amir Temur bobomiz Samarqand atrofida bog'lar barpo etgan. Ular to'g'risida ma'lumot bersangiz».

J.O'LMONOV,
Shahrisabz

Dunyoda buyuk bunyodkor nomi bilan tanilgan Amir Temur bobomiz o'zining ulug'vor poytaxti go'zal Samarqand atrofida bir-biridan bebaho 12 ta bog' yaratgan. Ular quyidagilardir: «Bog'i nav», «Bog'i jahonnoma», «Bog'i taxtiqoracha», «Bog'i Davlatobod», «Bog'i dilkusho», «Bog'i shamol», «Bog'i chinor», «Bog'i naqshijahon», «Bog'i baland», «Bog'i amirzoda Shohruh», «Bog'i maydon», «Bog'i behisht».

Eslatma: Aziz bolalar, bir kun kelib, orangizdan birortangiz ushbu bog'larning har biri haqida tadqiqot olib borib, keng ma'lumotlar to'plasangiz va ularni xalqqa yetkazsangiz, juda minnatdor bo'lardik.

Amir Temur so'zlari:

«Men qudrat va shuhratga erishganimda, bolaligimdagi do'stlarimning mavqeini ko'tardim, ulug'ladim. Har kuni bir qo'yni kambag'allar uchun so'yirdim, uni yetti nimta qilib, ahvoli nochorlarga ulashdim».

«Bir kun keladiki, zolim o'z barmog'ini tishlaydi».

«Bir kalima so'z qilichni qinga kiritar».

«Hamishalig' ta'kidlar edim: xon bo'lsang-da, bog' yarat, gadoy bo'lsang-da, bog' yarat – bir kunmas bir kun mevasini tatirsan...»

«Qishlog'im – qalb ardog'im» tanloviga

O'ZBEKISTON BO'YNIDAGI GAVHARLAR

G'ishdudon tumanidagi 19-maktabning «Yosh muxbirlar» to'garagi a'zolari «Tong yulduzi»ning doimiy muxlislaridir. Shu sababdan ham gazetada e'lon qilingan «Qishlog'im – qalb ardog'im» tanlovi ularni befarq qoldirmadi.

Tarixdan bizga ma'lumki, adolatparvar va ma'rifatparvar hukmdorlar doimo xalq farovonligi va taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratgan. Ezgu ishlarni amalga oshirgan.

Prezidentimiz tomonidan ushbu yilni qishloq taraqqiyoti va farovonligiga qaratilganligi ham yuqoridagi fikrimiz isbotidir.

Bizning G'ijduvonimiz ma'naviyat va ma'rifat darg'alaridan biri bo'lgan Hojai Jahon – Hoja Abdulholiq G'ijduvoniy nomi bilan yuritiladi.

Mirzo Ulug'bek G'ijduvoniy qabri yoniga bir maqbara qurdirgan va u yerni obod qilgan. Buxoro xoni Abdulazizxon esa qaytadan ta'mirlagan. Mustabit davrida esa bu joylar qarovsiz holga kelib qolgan edi.

Istiqloq yillarida tarixiy, ulug' joylarga fayz kirdi. Yurtboshimiz tashabbusi ila obod etildi, so'lim ziyoratgohlarga aylantirildi.

Bugungi kunda bu maskanlar butun dunyoga ko'z-ko'z bo'lmoqda. Samarqand, Xiva kabi Buxoro sharifimizni bekorga O'zbekiston bo'ynidagi gavharlar deb aytmagan-da:

OLMOS

Qishloq o'zgacha hayot. Unda oddiylik, samimiylik xislatlari kuchli. Ana shunday oqko'ngil, dilkash insonlar qo'li bilan qishloqlarimiz kundankunga obodlashib, farovon bo'lib bormoqda. Zamonaviy binolar qad rostlamoqda. Yangi-yangi korxonalar ishga tushib, qishloq taraqqiyot sari intilmoqda.

Bunday o'zgarishlarni payqagan sezgir o'quvchilar tahririyatimizga maktub yo'llashmoqda.

To'garak a'zolaridan Alisher Po'latov, Mohichehra Esanjonova, Shahlo Qo'ldoshovalar o'z yurtlari tarixi haqida yozishibdi.

«Har bir inson unga Konstitutsiya yoxud qonun bilan berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda vakolatli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishiga haqlidirlar».

«Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning 8-moddasi

BURCHGA SADOQATLI BO'LING

Biz insonparvar, kechirimli, rahm-shafqatli, mehr-muruvvatli xalqimiz. Bag'rikenglik va odamiylik kabi ezgu xislatlar bizda mujassam.

Birgina «O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi e'lon qilinganligining 17 yilligi munosabati bilan amnistiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Qarorini bunga misol qilib aytilish mumkin.

Ushbu qaror ehtiyotsizlik oqibatida qonunbuzarlikka yo'l qo'ygan, ijtimoiy jihatdan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etgan minglab insonlarning o'z oilasi bag'riga qaytishi uchun imkoniyat yaratdi.

Farg'onalik Temur ismli bola bozordan soat o'g'irlab sotayotganida qo'lga tushib, bir yil-u besh oyga ozodlikdan mahrum etilgan edi. Ammo bir yilga qolmay, Temurga nisbatan amnistiya qo'llanildi. Bu kabi bag'rikenglikdan to'g'ri xulosa chiqarmagan Temur ko'p o'tmay yana jinoyatga qo'l urdi.

Yaqinda bir jinoyat ishi ko'rib chiqildi. Dastlabki tergov bo'limi xodimlari aniqlagan holatlarga ko'ra, voyaga yetmagan Akmal ismli bola jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimasdan, jinoiy sheriklari bilan birgalikda bezorilik jinoyatini sodir etdi, ya'ni tengdoshini urib, unga shikast yetkazdi.

Shifokorlar tomonidan uning burun suyagi sinishi aniqlanib, birinchi tibbiy yordam ko'rsatildi.

Mazkur ish yuzasidan amnistiya to'g'risidagi Qarorning 1 «b» va 6-bandlari qo'llanilib, birinchi marta hukm qilingan 18 yoshga to'lmagan shaxslar jazodan ozod qilindi. Sud jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar masalasi bo'yicha fuqarolik sudiga murojaat etib, huquqlarini tushuntirishni lozim deb topdi.

Jinoyatga jazo muqarrar ekanligini har bir inson yaxshi anglab yetishi zarur. Har bir shaxs jamiyat oldida, ona yurt oldida burchlidir, bu burchga sadoqat bilan yondashish. Shundagina Siz erkin va to'liq kamol topishingiz mumkin.

Ravshan DJURAYEV,
Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar, Chilonzor tuman sudi sudiyasi

BOSHINGIZNI «QOTIRAY»...

Salom qadrli «Tong yulduzi»! Men ham sening ashaddiy muxlisingman. Ayniqsa, «Quvnoq tanaffus» sahifangni katta qiziqish bilan o'qib boraman. Undagi qiziqarli masalalar-u boshqotirmalarni sinfdoshlarim bilan birgalikda yechib, tanaffusimizni yana-da qiziqarli o'tkazamiz.

Matematika fanini juda yaxshi ko'raman. Men ham qiziqarli masalalar tuzib, tengdoshlarim boshini «qotirmoqchiman».


1. Savatda 5 ta olma bor. Ularni besh bolaga shunday bo'lingki, har bir bolaga bittadan olma tegsin va savatda yana bitta olma ortib qolsin.

3. Uch o'rtoq Anvar, Aziz, Samandar yo'ldan 3 tanga topib olishdi. Agar Samandar birinchi bo'lib yo'ldan o'tganda, qancha pul topardi?

4. Rasmdagi 19 ta doiraning ichiga 1 dan 19 gacha bo'lgan sonlarni shunday joylashingki, istiyoriy bir to'g'ri chiziqda yotuvchi 3 ta doiradagi sonlarning yig'indisi 30 ga teng bo'lsin.

Laura AMANQULOVA,
Toshkent viloyati, O'rtachirchi tumani

2. Ikki dona gugurt cho'pidan qanday qilib hech sindirmasdan 10 sonini hosil qilish mumkin?



ERTAKCHI BUVIJONIM

Buvim aytgan ertaklar Menga juda yoqadi. Oy ham asta mo'ralab, Derazamdan boqadi.

Buvim der: – Ertagimni Oy ham tinglab qaytadi. Yulduzlar bolasi-da, So'ng ularga aytadi.

Abdusattor G'AFUROV

dona
1 2 3 4

il
1 2 3 4 5

1 2 3

1 2 3 4 5

1 2 3 4

Rebusni to'g'ri hal qilsangiz, hikmatli bir naqlni o'qiydiz.



KO'ZOYNAK TAQMANG, BUVI

– Buvijon, nega ko'zoynak taqasiz? – so'radi nabira.
– U menga narsalarni kattalashtirib ko'rsatadi.
– Unda menga tort kesayotganingizda, ko'zoynagingizni taqmang, xo'pmi?!

UYALI TELEFONINGIZ BORMI?

Bundan bir necha yillar avval uyali telefon tutayotgan kishilarga havas va hayrat bilan boqardik. Hozir esa bu qulay aloqa vositasi hech kimni ajablantirmay qo'ydi. Undan foydalanish esa davr talabiga aylanib borayapti. Nafaqat biz, hatto jajji uka va singillarimiz ham undan foydalanishni juda yaxshi bilishadi.

Men tengdoshlarimning bilimdon-u zukkoliklarini sinash, katta tanaffusda biroz boshlarini «qotirish» maqsadida, uyali telefonlarga oid qiziqarli matematik misollar yozib yuboryapman. Ularni to'g'ri yechsangiz va javoblaringizni telefon raqamlari o'rniga tartib bilan joylashingiz hamda uni lotin harflari bilan almashtirsangiz, matematika fani rivojiga katta hissa qo'shgan buyuk mutafakkir nomini aniqlaysiz.

Uyali telefoningiz bo'lsa, albatta!
Masalan: 1+2=3, ya'ni alifboda 3-harf – D.

1) $5x+16=15+6x$

2) $\frac{x}{11} + \frac{2x}{22} = \frac{8}{10} \cdot 2 \cdot \frac{2}{4}$

3) $\frac{x+3}{5} + \frac{x-2}{5} = \frac{18}{4} + \frac{1}{2}$

4) $\frac{1}{5} + \frac{x}{5} = 1 \cdot \frac{2}{3} \cdot 2 \cdot \frac{2}{5}$

5) $\left(\frac{1}{3} + \frac{5}{9} - \frac{17}{27} \right) \cdot 13 \cdot \frac{1}{2}$

6) $\left(\frac{4}{5} \cdot 8 \cdot \frac{1}{3} - 6 \cdot \frac{1}{6} \right) + \frac{1}{2} =$

7) $\left(\frac{4}{5} + \frac{1}{5} \right) \cdot \left(\frac{6}{11} \cdot \frac{22}{3} \right) \cdot \left(\frac{4}{9} \cdot 4 \cdot \frac{1}{2} \right) =$

8) $\frac{2}{8} + \frac{1}{4} + \frac{5}{6} + 10 \cdot \frac{2}{3} =$



TOPISHMOQLAR

Ko'k ko'ylakli bir ayol Sariq bola ko'targan.



Tanasi bor, boshi yo'q, Qo'li bor, oyog'i yo'q.



O'zi tanho, yagonadir, Tabiatga chin onadir.



Tilla barkash yaraqlaydi, Yuzi kulib charaqlaydi.



Sardor ABDUG'AFFOROV,
Farg'ona viloyati, Oltiariq tumani

XANDALAR



TOG'DA

– O'g'lim, pastga qaragin, qanday chiroyli manzara, – dedi ota tog'ning baland cho'qqisiga chiqqan o'g'luga hayajon bilan. – Xuddi rassom chizgan chiroyli manzaraning o'ziya!

– Dada, pastlik chiroyli bo'lsa, unda tepaga nimaga chiqdik?

Ibrohim XO'JAYEV,
poytaxtdagi 49-maktabning 5-«G»
sinf o'quvchisi



(Boshi o'tgan sonlarda)

Parpi bobo zo'r odam. Biron to'y-tomoshami, xursandchilik kunlari bo'lsa, burun o'tgan shoirlarning bayt-u g'azalini o'qiydi. O'qiganda ham odamning badanini jimirlatib yuboradi. Ovozi shirali, jon-joningizni eritadi.

Bobo choponiga burkanib, mizg'ib yotgan ekan. Erinib o'rmidan turdi. Enamdan salom aytib, xaltamni ochdim. Parpi bobo eski kitoblarni ehtiyotlab varaqladi. Ba'zi birlarining boshi yo'q, ayrimlarining oxiri yirilgan yoki o'rtasi yo'qolgan ekan. Bobo sharillatib bir kitobni o'qidi:

*Shaksiz biling, bu dunyo barcha xalqdin o'taro,
Inonmag'il molingga, bir kun qo'ldan ketaro.*

Ota-ona, qarindosh qayon ketdi, fikr qil,

To'rt oyoqli cho'bin ot bir kun senga yetaro!..

– Qaydan olding muni? – deb so'radi bobo.

– To'lan aka berdi. Mozoristondan topgan emish.

– Noinsoflar! – deb bobo kimnidir koyidi. Keyin, hozirgina o'qigan kitobini ko'rsatib dedi, – bu Hazrati Sulton Hoja Ahmad Yassaviyning hikmatlari ekan. Odamlar qo'rqqanidan kitoblarni mozorga ko'mib qo'ygan. Xudo xohlarsa, bir yaxshi zamonlar keladi, ul kitoblar yana o'qiladi. Mana, Hazrat Sulton nima deydi:

G'arib Ahmad so'zi hargiz qarimas,

Agar yer ostiga kirsas, chirimas.

Meni hikmatlarim olamga to'lg'on,

Eshitmay har kim o'lsa qilg'ay armon.

Parpi bobo to'xtab qoldi. Titilib ketgan sap-sariq varaqqa tikilib turdi-da, dedi:

– Bu yog'i o'chib ketibdi, zax yerda yotaverib urinib qolibdi. – Hay, mayli, bularni xaltangga solib ol. Ayangga ayt, yaxshilab saqlasin, katta bo'lganingda o'qiysan. «Shoh Mashrab» menda turatursin, besh-olti kun o'qib, keyin beraman.

Kitoblarni xaltaga tiqib, uyga jo'nadim. «Shundoq-shundoq», dedim enamga. Ayam arabcha yozilgan

kitoblarning hammasini eski bir dasturxonaga o'radi, tugib katta sandiqqa soldi.

– Endi zuvalaga nima o'raymiz?

– dedi ayam, – anavi To'lan cho'loq isini sezib qolsa, baloga qolamiz, bolam.

– Shuni o'ylab, mening ham boshim qotib turuvdi. Shuv etib miyanga bir fikr keldi. Tog'amnikiga borib kelaman, aya, – dedim, – tog'amning eski jurnallari ko'p bo'lar edi.

– Mayli, bolam, ishqilib, stakanlarimiz to'xtab qolmasin.

Tez-tez kiyinib, Ichkent tomonga uchdim. Tog'am muallim, urushdan burun uyga bir quchoq gazeta-jurnal kelib turardi. Qolgan-qutgani bordir, deb umid bilan boraverdim. Tog'am uyda ekan. U kishiga arabcha kitoblarni sandiqqa berkitib qo'yganimizni aytib o'tirmadim. O'qib bo'lgan jurnallaringizdan besh-o'ntasini bering, kerak bo'lib qoladi, deb qo'ya qoldim. Tog'am bir dasta jurnal olib chiqib, oldimga tashladi. «Yosh kuch», «Oydin» degan oynomalar ekan. Lotincha yozilgani uchun sharillatib o'qidim. Ularni xaltamga joylab, uyimga qarab chopdim.

Biror haftada biz yasagan stakanlar mingdan oshib, bir yarim mingtaga yetdi. To'lan aka bir kuni yana otda paxsadan mo'ralab, chaqirib turibdi. Chiqsam, taqimiga o'n kilocha bug'doyini bosib olibdi.

– Ma, shum bola, – dedi u qopchiqni olib, – ayangga ber, tug'ishgan deb senlarga bo'nak olib keldim.

Bug'doyini orqalab uyga olib kirdim. Kerakli yukning og'irligi bo'lmas ekan. Bir dam olmasdan oshxonaga yetkazdim. Ayam ikki elak bug'doyini yerga yoyib, qoramig'ini terdi. Men yer o'choqqa o't yoqdim. Ayam qozon osdi. Asad ukam o'choqqa yovshon tiqdi. Ayam

PARPI BOBO



qozonga bug'doy solib, yumshoq supurgining sopi bilan donni ag'darib o'tirib, qo'g'irmoch qovura boshladi. Ora-chora xirgoyi ham qilib qo'yadi:

Oq qo'yning kallasi,

Qora qo'yning kallasi,

Man Xudoning bandasi,

Qo'g'ir-qo'g'ir, qo'g'irmoch,

Qo'g'ir-qo'g'ir, qo'g'irmoch.

Ukam ikkovimiz qozondan otilib yerga tushgan issiq qo'g'irmoch donalarini puf-puflab terib yeymiz, bir-birimizga qarab kulamiz. Ayam bir nima deb o'zicha so'zlanadi. Biroq, uning gapi qulog'imizga kirmaydi. Qozondan sakrab chiqayotgan bug'doy donalarini ilib olib, qasir-qusur chaynaymiz. Sakra, sakra qo'g'irmochim, qo'g'irmoch!..

(Tamom)

Sa'dulla SIYOYEV

DOVYURAK, DONO MALIKA

Xalq duosin eshitib shoh,
Xursand bo'lib ketganmish.
Kelajagi uchun elning
Yangi reja bitganmish.
Ma'rifatli donolarni
Qilib doim parvarish,
Fanda rivoj toptirganmish
Oqilona tutib ish...

II

O'sha shohning bo'lgan ekan
Xumor degan bir qizi.
Sarviqomat, ko'zi shahlo,
Kulib turgan gul yuzi.

Yoshligidan tarbiyalab
Uni dono bir otin,
O'taganmish ham onalik,
Ham ustozlik xizmatin.
Xumor o'xshab ustoziga,
Dono bo'lib olganmish.
Savol-javob aytishuvda
Elga dovrug' solganmish.
Yana shohning otboqari
Zohir degan mard yigit,
Yosh bo'lsa ham aqli raso,
Yigitlarga bosh yigit.
O'rgatganmish ot chopishni
Puxta bilib mashqini,

Qiz qalbida paydo bo'lib,
Amudaryo toshqini.
Poygalarda qatnashganmish
Kiyib erkak libosin,
Yenggan emish ko'p yigitni,
Quvontirib ustozin.
Qiz dovrug'i ketgan emish
Eldan oshib ellarga,
Go'zalligi, donoligi,
Doston bo'lib tillarga...

Bozorlarda arzonlashib
Qolgan emish narx-navo.
Duo qilib xalq deganmish:
«Shohni asra, yo Xudo!»

(Boshi o'tgan sonlarda)

(Davomi bor)

LIFBE»DA NECHTA HARF BOR?

Kavsar TURDIYEVA

Alifbeda boqadi
U haqiqiy taqadir.

U u



Umring o'tgan joydir u
Mehrga ham boydir u.
Eslab to'lib-toshasan
U tomonga shoshasan.

O'z hukmini o'tkazar
Polvonni ham yotqizar.

(nbkn)

Echkixonga boladir
Uyi tog'-u daladir.

Sho'x va shalpang quloqcha
Uning nomi...

Polvonni ham chaladi
O'zi qayda qoladi?
Dangasaga qo'l kelar
Kuchlidan ham zo'r kelar.
Oh, shunaqa shirin u
Ko'zga ko'rinmas...

(nbkn)

Qizaradi osmonda
Juda uzoq tomonda.

Oshiqadi xamirga
So'ng tushadi tandirga.




O'zi dondan olingan
Va qoplarga solingan.



Ekdik biz ancha terak
Terak uy uchun kerak.
Bo'lsa to'g'ri va butun
Chiroyli bo'lar ustun.

Harf ugraga tushibdi,
Ugraga un qo'shibdi.
Usta oshpazdek shu tob,
Yana to'g'rabdi ukrop.
Harf debdi: «Yana o'zim
Uzib beraman uzum».




XATO

Burxon ukam futbolni
Juda yaxshi ko'radi.
Har-har zamon o'zi ham
Futbol o'ynab turadi.

Bir kuni u to'p tepib,
«Gol» deb baqirib qoldi.
Keyin esa birpasda,
Yer chizib o'yga toldi.

Bilsam, ukam adashib,
O'ziga «gol» uribdi.
Shuning uchun uyalib,
Boshin egib turibdi.

Nozima MAMATALIYEVA,
1-Toshkent pedagogika
kolleji talabasi



BO'SH KELMANG, USTOZLAR!

Maktabimizda sportni sevmaydigan, uning biror turi bilan shug'ullanmaydigan o'quvchi yo'q, desam ishonavering. Tez-tez o'tkazib turiladigan sport musobaqalarining nomlarini birma-bir sanay desam, sanog'idan adashib ketaman.

Nafaqat o'quvchilarimiz, balki o'qituvchilarimiz ham sportning ashaddiy ishqibozlaridir.

Yaqinda yana bir ajoyib musobaqa bo'lib o'tdi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarimiz yuqori sinf o'quvchilari bilan «Quvnoq sport» musobaqasini o'tkazishdi. Biz esa sportning bir necha turlari bo'yicha bellashgan ustozlarimizni qo'llab, «Bo'sh kelmang, ustozlar!» deya olqishlab turdik.

Elmira OCHILOVA,

Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi 12-maktab o'quvchisi

VATANIMNING YURAGISAN

Mashaqqatning qo'llaridan tutib borgan,
Necha g'avg'o boshi uzra ortda qolgan.
Ming yilliklar to'fonidan o'tib olgan,
Metinbardosh, ko'hnadursan, azim Toshkent!

Sen bobolar, ulug' zotlar tilagisan,
Hurlik uchun kurashganlar bilagisan.
Farovonlik kutgan elning keragisan,
Vatanimning yuragisan, azim Toshkent!

Zo'ravonlik, nopoklikdan qilgan hazar,
Islom dini poytaxtisan nurli shahar.
Haqiqatdir senga Olloh solgan nazar,
Ahli imon shahridursan, azim Toshkent!

Tarixing bor unutilmas har bir boshda,
Noming bo'lgan gohi Chosh-u, gohi Shoshda.
Muboraksan mana bugun ulug' yoshda,
Faxrim mening, qadri baland, azim Toshkent!

Qiziqarli ma'lumotlar

1. Futbol chempionatlarining barchasida qatnashgan yagona davlat Braziliyadir.

2. Amerikaliklar har yili golf o'yini koptogi uchun 630 million dollar hisobida pul sarflashar ekan.

3. «Kubik-rubik» boshqotirmasini yechish uchun o'rtacha hisobda 48 tadan 100 marta gacha burish kerak bo'ladi.

DILAFRO'Z tayyorladi



Sitora RAHMATOVA,
ToshPTI qoshidagi 1-sonli akademik-
litseyining 201-guruh o'quvchisi


XOTIMANING YUTUG'I

Xotima Islomova poytaxtimizdagi 324-maktabining 9-«A» sinfida tahsil oladi. U shaxmat bilan jiddiy shug'ullanadi.

Tengdoshlari orasida shaxmatchi qiz doimo g'oliblikni qo'lga kiritib kelmoqda.

Kuni kecha Toshkentda Navro'z ayyomiga bag'ishlangan qizlar o'rtasida shahar birinchiligi musobaqasi bo'lib o'tdi. Unda Xotima aql gimnastikasi bellashuvlarida birinchilikni qo'lga kiritdi.


Uning bu yutug'idan maktab o'quvchilari, ustozlari juda xursand bo'lishdi. Albatta, bu quvonchlar bizni ham quvontirdi. Sababi, yurtimizda yana bir shaxmat malikasi sport olamiga kirib kelayotganiga shubhamiz yo'q.



G'OLIBA



QALBINGIZGA YO'L IZLAB CHIQDIK!



Bahor – bolalikdek beg'ubor. Ona zamin bag'ridan unib chiqqan har bir giyohda bir dunyo zavq bor. Biz zavqlar olamida yurib, zavq olamiz. Surxonning dasht-u dalalarida kezgan bolalarni ko'rib, ko'nglimiz yorishadi.

Bepoyon qirlar bag'rida shodliklari bilan quvlashib yurgan qaqajonlarning nigohida bir olam ma'no...

Sariosiyo tumanidagi 36-o'rta maktab direktori Abrammat Rajabov she'rga chanqoq o'quvchilarini she'riyat bazmiga boshlaydi. Biz bolalarning behisob savollariga «ko'milamiz». O'smirlikning rangin dunyosi go'zal. Uning qiyosini topolmaymiz. Borliqqa bog'lanib qolgan bolalarning hayrat to'la ko'zlarida ezgulikning suratlarini ko'ramiz.

– Siz qachon she'r yoza boshlagansiz? – deya savol berishadi ular.

O'ylayman, men qachon she'r yozganman?! Ko'nglimda tuyg'ular uchqunini paydo etgan kun qayoqqa ketdi? Adabiyot o'qituvchimiz Rahmonullayevning «Hammaga sen o'rnak bo'lasan», degan gapini eslayman. O'shanda endi xayol girdobida g'arq bo'lib yurgan kezlarim edi. Hatto kirish qo'ng'irog'i chalinganini ham eshitmay qolganman. Domlamiz mendan keyin hech kim darsimni bo'lmasin,

deganlari yodimda. Shunga qaramay, adabiyot fani jon-u dilim bo'lgani uchun darsga kirishga oshiqdim. Eshikni ochib, ichkariga kirdim. Domlamiz menga e'tibor ham bermadi. O'quvchilarning fikri bo'lindi. Hammasi dars tugagandan keyin sodir bo'lgandi. Ustoz yuzimga shunchalik qattiq tarsaki tushirdiki, ko'zlarimdan o't chaqnaq ketdi.

– Hammasiga sen o'rnak bo'lasan!

Tanbeh berayotgan domlamiz siymosi hanuzgacha ko'zim oldidan ketmaydi. Hayotda ilk bora qoqilib, peshonam daraxtga urilgan kun o'sha edi. Uyqudan uyg'onib ketgandek bo'lganman. Yillar o'tib borgani sayin u surat dilimda yuksalib bordi. Qadamimni hushyorroq bo'lib qo'ydim...

«Bolalikda» bol so'zi bor. Bolni bolarilar guldin yig'ishadi. Biz hayotimiz mazmuni bo'lgan qadrdon bolalikdan bol yig'ib ulg'aydik.

Surxondaryodagi ko'pgina maktab va kollejlarda bo'lganimizda, havas qilsa arzigulik koshonalarda ta'lim olayotgan o'g'il-qizlarimiz ko'zlaridagi quvonchdan ko'nglimiz yorishdi. Umrining qariyb yarim asrini ta'lim sohasiga baxsh aylagan ustozimiz Ibrohim Safarov:

– Bolalarimiz uchun barcha qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Bunday daqiqalar hech bir davr-u zamonda bo'lmagan, – deya faxr bilan so'zlaydi.

Biz maktablarda uchrashuvlar o'tkazib yurgan chog'imizda shu narsaning guvohi bo'ldikki, respublika bolalar va o'smirlar gazetasi «Tong yulduzi» bolajonlarimizning so'z minbariga aylangan. Biz uning har bir sonida bolalar qalbiga yo'l izlab safarga chiqamiz. Jumladan, 2009-yilning uch oyi mobaynida surxondaryoliklar tarixi va buguni bilan bog'liq bo'lgan voqealar gazetamiz sahifalarida alohida o'rin egallagan:


«Biz poshxurtlik bo'lamiz», «Oy gilamlar to'qilgan yurt», «Alpomishning enasi», «Humo qushin quehgan Humoyun», «Vatanim posbonlari» kabi dolzarb mavzudagi maqolalar fikrimiz dalili. Ayni kunda 70 ming nusxada chop etilayotgan gazetamizning to'rt ming muxlisi surxondaryolik o'quvchilardir. Bu, albatta oz...

Zero, bugungi kun o'quvchisining ma'naviyatini yana-da boyitishda gazeta-jurnallarning ham o'rni beqiyosdir.

Ey, qalbida quyoshning zarrin nurlari makon etgan yurt bolalari! Bugun yana bahor keldi. Siz maysalarga qo'shilib shivirlayapsiz. Mening ham bolalikka qaytgim kelayapti...

Qizlar Akademiyasi

«TILLAQOSSH TAQQIM KELARDI»



Ko'zlarida olam quvonchi,
Baxt qo'shig'in kuylagan qizlar.
Kelajakning orzu, ishonchi,
Poydevori aslida sizlar.

Yo'lingizga gul sochar takror,
Gullar bilan to'lgan makonim.
Peshvoz chiqib kelar har bahor,
O'rikzordan Zulfiyaxonim.

– 2006-yilda birinchi qo'shig'imni katta umidlar bilan «Meni tinch qo'y» deb nomlab, katta sahnaga olib chiqdim. Qo'shig'ini muxlislar juda yaxshi qarshi olishdi. To'g'risi, bunday bo'lishini kutmagan edim, – deydi Ziyodaxon. – Undan ilhomlanib, ijodimda ancha o'zgarish bo'ldi.

Ziyodaxon bog'cha yoshidanoq qo'shiq kuylardi. Maktabda esa hech bir tadbir uning ishtirokisiz o'tmasdi. Taniqli xonanda Faxriddin Umarov ijro etgan «Ey, muhabbat» qo'shig'ini ham xonanda yangicha bir uslubda mahorat bilan ijro etdi. «Super kelinchak» filmidagi qo'shiqlar ham uning ijrosida o'zgacha talqinda

«KATRA» QANDAY RAQS?

Kim ham hindcha raqsni ijro etishni istamaydi, deysiz? Dugonam Gulmira hind mumtoz raqsi – katrani ham ijro eta oladi. U Hindiston madaniyati markazida raqs o'qituvchisi Ranjana Sarkardan «dumasa», «dandiya» raqslarini ham o'rganib bormoqda. Respublika rassomchilik kolleji o'quvchisi Gulmira Musurmonova hatto mustaqilligimizning 17 yilligiga



bag'ishlangan bayram tantanalarida ham qatnashgan. Raqs orqali u hatto hind, ispan, koreys, ingliz tillarini ham o'rganib olgan. Kollejimizning faxri bo'lgan budugonamga barchamiz havas qilamiz.

Durdona MAQSUDOVA

yangradi. Ziyodaxonning onajonisi san'atni qadrlaydigan inson bo'lgani bois, qizining san'atkor bo'lishini orzu qilardi. Ayni paytda uning yutuqlaridan ruhlanib, sevinib yuribdi. Ziyodaga sahnada o'zini tutishni, muxlislariga e'tiborli bo'lishni o'rgatgan ham, kamtarinlik fazilatlarini singdirgan ham mehribon onajonisidir.

– Ziyodaxon, sizning sevimli mashg'ulotingiz nima? – deya savolga tutdik uni.

– Raqsga tushishni hamda xonaki gullar parvarishlashni xush ko'raman. Qiz bola birinchi navbatda go'zallik shaydosi bo'lishi kerak-da, axir!

– Insonlardagi qaysi xislatlarni qadrlaysiz?

– Kamtarinlik, samimiyluk xislatlarini qadrlayman.

– Qaysi qo'shig'ingiz siz uchun aziz?

– Menimcha, barcha qo'shiqchi va aktyorlarning har bir o'ynagan roli, ijro etgan qo'shig'i o'zi uchun juda aziz bo'ladi. Bitta qo'shig'ni sahnaga olib chiqish uchun qancha mehnat talab qilinadi. Lekin shuni aytishim kerakki, hali ko'nglimdagi «xit» qo'shig'imni ijro etolmadim. Hozircha repertuarimdagi qo'shiqlardan «Sayding qo'yaber Sayyod», «Unutolmadim», «Menda emas», «Sevmaganman», «Tinch qo'y», «Kamchiliging serob», «Bevafo yor», «Yuragimsan», «Sog'inganda», «Har soniya», «Hay, Layli», «Xayolimda», «Kelibdi», «Parvona» kabi yigirmadan ortiq qo'shiqlarni ijro etdim. O'ylaymanki, bundan keyingi ijodimda ham aziz onajonlarga opa-singillarimning yuraklaridan joy oladigan qo'shiqlar yaratishni orzu qilaman.



– Qaysi ustozingizdan o'rnak olishni istardingiz?

– Men Toshkentdagi 299-maktabda o'qiganman. Algebra ustozim Muborak opani juda yaxshi ko'rardim. Ularning muloyimligi, kezi kelganda, biroz talabchanligi ham yoqardi.

– Mumtoz qo'shiqlarni ijro etganingizda, qaysi xonandaga havas qilgansiz?

– Qizaloqligimda xuddi Komuna Ismoilova kabi peshonamga tillaqosh taqib, maqom qo'shiqlari ijro etishni yaxshi ko'rardim. Furqat, Uvaysiy, Nodirabegim g'azallarini sevib o'qiyman.

– San'atkor bo'lmaganingizda, qaysi sohani tanlardingiz?

– Dadam meni ko'proq shifokor bo'lishimni istardilar. Lekin tabiatan o'ta ko'ngilchan bo'lganim tufayli, barmoqdagi bitta zirapchani ham eplab ololmaganim, qondan juda qo'rqqanim uchun san'atkor bo'lishga ahd qilganman.

– Qizaloqlarimiz orasida sizga havas qiladiganlari juda ko'p. Kelgusida ko'plab Ziyodaxonlar yetishib chiqsa, ajabmas.

MANZURA suhbatlashdi

KIM KIMGA HAVAS QILADI?

Aynan shu savol ko'plab madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ko'ndalang qo'yilmoqda. Gap shundaki, ilm-fan, texnika rivojlangan hozirgi davrda odamlarning tashqi ko'rinishi va kiyinishi mulohazali mavzu bo'lib qolmoqda.

Xo'sh, hozirgi yoshlarimiz kimga va qanday kiyimlarga havas qilishmoqda? Shahar ko'chalari bo'yab kuzatishlarimiz natijasida ba'zi qizlarimizning tor shim, kalta yubka kiyib yurishlariga guvoh bo'ldik. Yigitlarimiz esa antiqa rasmi futbol kalar, olachipor kalta shimlarda yurishibdi. Ayrimlari seriallardagi qahramonlarga taqlid qilib, sochlarining rangini ham o'zgartirishgan.

Ommaviy axborot vositalari orqali turli tadbirlar, ko'rgazmalar, xalqaro uchrashuvlar o'tkazilishidan xabardor bo'lamiz. Ko'plab tadbirlar aynan o'zbek liboslariga bag'ishlanmoqda. Ushbu tadbirlarga AQSH, Fransiya, Yaponiya, Koreya kabi ko'plab mamlakatlardan mehmonlar tashrif buyurishadi.

Ularning nafaqat tarixiy shaharlarimizni ziyorat qilishga, balki o'zbekona liboslarimizni ko'rishga ham qiziqishi baland. Matolarimizning mayinligi hamda rang-barangligi ularni lol qoldirmoqda. Bundan albatta faxrlanishimiz lozim.

Ana shu matolardan milliy uslubda liboslar tiktirib kiysak, qanday yaxshi!

Xo'sh, aziz tengdoshim, siz kimga va qanday kiyimlarga havas qilasisiz?

Malika RO'ZIYEVA,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi
281-maktabning 9-sinf o'quvchisi



BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092

Muassislar:
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi:
Zuhra MUHSIMOVA
Navbatchi:
Gulyuz ORIFJONOVA

Rassom:
Feruz MATYOQUBOV

Adadi - 62843
Buyurtma N: J 7209